

14 YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

*Xamdamov I.M.*

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xayfsizligi universiteti*

**Annotatsiya.** 14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni. Ushbu maqolada bu munosib sanani mamlakatimizda kutib olish munosabati bilan amalga oshiriladigan ma’naviy-marifiy tadbirlar, bu boradagi ajdodlarimiz tomonidan madaniy meros sifatida bizga qoldirgan tajribalar, Yurtimiz posbonlarining salohiyati, shuningdek ularning vatanparvarlik tuyg‘ulari haqidagi fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** 14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni, har bir qarich yer muqaddasdir, Armiya va xalq bir tanu bir jon.

1993-yilning 29-dekabrida 14-yanvar jonajon O‘zbekiston Respublikamizda “Vatan himoyachilari kuni” deb e’lon qilindi, u Respublikamiz tarixida eng muhim tadbirdan biriga aylandi

Vatan himoyachilari kunini nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ayni vaqtda armiya saflarida o‘z burchini o‘tab qaytgan vatandoshlarimiz va ertaga xizmatga boradigan ming-minglab navqiron yigitlarning bayrami, deb ham qabul qilingan.

Hozirgi kunda jonajon Respublikamiz Armiyasi saflarida, avvalombor, mustaqil va suveren O‘zbekistonimizga xizmat qilish, uning manfaatlari va sarhadlarini, xalqimizning tinch va osuda hayotini himoya qilishga azmu qaror qilgan Vatan himoyasi uchun har doim va har kuni o‘zlarini safarbar etishga tyor, mard va fidoyi, intellektual jihatdan tarbiya topgan yetuk kadrlar tarkibi shakillandi. Ular yurt tinchligi uchun sabr va jiddiylik bilan muntazam ravishda shug‘illanib, o‘z bilim va mahoratlarini oshirib kelmoqdalar.

Ulug‘ ajdodlarimizning ma’naviy me’roslariga nazar tashlasak, butun dunyoga ma’lum va mashhur bo‘lgan Sohibqiron Amir Temur bobomiz haqida ma’lumotlar ko‘z oldimizga keladi. Chunki azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zida ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo‘l ochdi. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar va dalillardan ko‘rinib turibdiki, davlat arbobi yoshligidan juda tadbirkor, ishning ko‘zini biladigan shahs bo‘lgan, u ayniqsa, boshqaruvning nozik, ko‘pchilik uchun tushunish qiyin bo‘lgan sirlarini yaxshi o‘zlashtirgan. Uning dunyoqarashida davlatga, harbiy ishlarga bo‘lgan qiziqishi yoshligidan uyg‘onadi. Hozirgi kunda Sohibqiron Amir Temur amalda qo‘llagan harbiy san’at merosi jahon xalqlarining harbiy san’ati merosidan munosib o‘rin oldi va hozirgi davrning yangi mazmuni bilan boyib bormoqda.

Vatanimiz hududidagi har bir qarich yer muqaddasdir. Shuning uchun

ajdodlarimiz yurt tuprog'ini ko'zlariga to'tiyo etganlar, qayerga borsa ham Vatan yodi bilan nafas olganlar.

Vatan tuyg'usi – muqaddas va aziz tushunchadir. Yani Vatan tuyg'usi-bu Vatanni himoya qilib, jonajon Vatanga butun borlig'ini bahsh etgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Solihbek dodxo, mulla Alimqul dodxo singari yuzlab sheryurak ajdodlarimizni eslashdir. Tomirida oxirgi tomchi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, singari bo'ysinmas bahodirlarning hayot maktabi bizlarda faxr tuyg'usini yuksaltiradi

Vatan tuyg'usi-bu aziz va go'zal Vatanimizga yuksak etiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bolishdir.

Har bir insonning o'z Vatani uning uchun dunyodagi eng go'zal va muqaddas makondir. Vatanga mehr-muhabatli bo'lish, ota-onasiga mehr-muxabbatli bo'lish demakdir. Ona Vatanimizga sadoqatli bo'lish, ajdodlar merosini munosib saqlash va davom ettirish, milliy ma'naviyatdan baxramandlik, o'ziga ishonch, kelajak oldida ma'sullik tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Ta'lim muassasalarida "Vatan himoyachilari kuni" tadbirlarini o'tkazishning mazmun-mohiyati shundan iboratki, o'quvchilardan Respublikamiz Qurolli kuchlarining salohiyati va obro'si, mamlakatimiz mustaqilligi hamda xududiy yaxlitligi, xalqimizning tinch hayotini va mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi bunyodkorlik mehnatini himoya qilish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini keng yoritib berish, ularni o'z vataniga sodiq va fidoiy insonlar etib tarbiyalash barcha ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasining eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Bugungi kunda o'quvchi yoshlarda vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimioy hamkorlik kabi milliy g'oyalarning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish, bu ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish an'anaga aylanib bormoqda. Yoshlarni harbiy xizmatga kuzatish jarayoniga e'tibor bersangiz ulardagi tantanavor ruhiyat, vatanparvarlik tuyg'uularini to'lib toshayotganligini ko'rasiz. Vatanimiz, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, bugungi kunda har bir yurt farzandining orzusiga va burchiga aylanib bormoqda.

Bugungi yoshlarimiz mustaqil Vatanimizning posbonlaridir. Biz navqiron avlod vakillarini barkamol, yetuk kishilar qilib voyaga yetkazsak, ularning har birida ornomus, milliy g'ururni izchil shakllantirib borsak, Vatanimiz shunchalik qudratli davlatga aylanadi. Vatanni, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, vatanparvar bo'lish, sodiqlik, fidoyilik tuyg'ularini xis etib yashayotgan yoshlarimiz mustaqil yurtimizning kelajagidir. Biz qo'lga kiritgan bunday yutuqlar bilan muqaddas yurtimizda yashayotgan, millati, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, har bir inson haqli ravishda faxrlansa arziydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Armiya va xalq bir tanu bir jon! degan

olijanob g'oya va amaliy harakat barcha bo'g'indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniyalar tashkilotlari, ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatini, keng jamoatchilik hayotini qamrab olmoqda. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharaflı burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi" deb aytgan gaplarida ham Qurolli Kuchlarimizning xalq bilan har qachongidan ham yaqinligini anglashimiz mumkin.

### **Adabiyotlar**

1. Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 27 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi yo'lladi. Daryo.uz <https://daryo.uz> › 2019/01/13
2. Shavkat Mirziyoyev 14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni bilan barcha askar va serjantlar, ofitser va generallar, Qurolli Kuchlarimiz xizmatchilari va faxriylarini tabrikladi, 14 yanvar 2023 y. UzReport yangiliklari. <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-14-yanvar-munosabati-bilan-vatan-himoyachilarini-tabrikladi>